

**BO'LAJAK DEFEKTOLOG MUTAXASSISLARNI BOSHLANG'ICH  
SINFLARDA INKLYUZIV TA'LIM BERISHGA TAYYORLASH****Sattorova Mohira Aminqulovna <sup>1</sup>**<sup>1</sup>ATMU pedagogika kafedrası dotsenti**MAQOLA  
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received:04.02.2025**Revised: 05.02.2025**Accepted:06.02.2025***KALIT SO'ZLAR:***defektolog,  
differensiallashtirish,  
individuallashtirish,  
inklyuziv ta'lim, Klinik,  
diagnostika,  
pronoz,metodika.**Ushbu maqolada bo'lajak defektolog mutaxassislarni boshlang'ich sinflarda inklyuziv ta'lim berishga tayyorlashning dolzarbligi va ahamiyati tahlil qilingan. Inklyuziv ta'lim sharoitiga avvalo mutaxassisning tayyorligi juda muhimdir. Imkoniyati cheklangan boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash usullari, vositalari va metodlarini differensiallashtirish orqali ta'lim faoliyatini individuallashtirish masalalariga e'tibor qaratilgan.*

**KIRISH.** Bugungi kunda bo'lajak defektolog mutaxassislarni kasbiy vazifalar doirasi kengayib bormoqda. Bu har bir imkoniyati cheklangan o'quvchi uchun uning ta'lim imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos ta'lim yo'nalishini belgilash zaruriyati bilan bog'liq. Bir necha o'n yillar davomida mamlakatimizda psixologik-tibbiy-pedagogik mutaxassislari tomonidan bolalarni qisqacha tekshirish jarayoniga yo'naltirilgan differensial diagnostika modeli ustunlik qilib kelgan.

Klinik shifokorlar, psixologlar va pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar, jumladan: markaziy asab tizimining yetarli darajada rivojlanmasligi, intellektual salohiyatning yetarlicha shakllanmaganligi imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun differensial ta'lim modelini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilgan.

L.S.Vygotskiy fikricha, diagnostika ishlari murakkab rivojlanish simptomlarining tarkibiy jihatini aniqlashga qaratilishi kerak, va bu ishning yakuniy natijasi pedagogik yoki

davolovchi-pedagogik yo‘naltirilgan, rivojlanish prognozini o‘z ichiga olgan tashhis bo‘lishi zarur. L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan diagnostika natijalaridan kelib chiqib, tuzatish ta‘sirini amalga oshirishda dinamik va tizimli yondashuv zaruriyati haqidagi qarash bolalar rivojlanishi va inklyuziv ta‘lim jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun bolaning individual xususiyatlarini o‘rganish muhimligini ko‘rsatadi.

Metodologik darajada diagnostika psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash mutaxassislarining barcha faoliyat turlarining asosi sifatida tushunilishi, milliy defektologiyaning asosiy tamoyillaridan biri – diagnostika va tuzatish birligi tamoyilida aks etadi. Ushbu tamoyilga asoslangan holda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga inklyuziv ta‘limni tashkil etish amaliyotida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan.

I.A.Korobeynikov quyidagilarni qayd etadi: odatda defektologlar bolaning klinik tashxisini qo‘llab-quvvatlovchi “ob‘ektiv” ma‘lumotlarni taqdim etishda faqat sinov natijalarini intuitiv talqin qilishga tayanishgan. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan bolalar ta‘limini differensial tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan. Bu tadqiqotlar natijasida klinik-biologik va psixologik-pedagogik bilimlarni pedagogik kategoriyalar bilan integratsiyalash va imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta‘lim jarayoni sharoitlarini ishlab chiqishga urinishlar amalga oshirilgan.

Imkoniyati cheklangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlash usullari, vositalari va metodlarini differensiallashtirish orqali ta‘lim faoliyatini individuallashtirish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar A.D.Vilshanskaya, G.I.Jarenkova, G.M.Kapustina kabi olimlar ishlarida aks etgan.

A.D.Vilshanskaya o‘z tadqiqotlarida defektolog-o‘qituvchi tomonidan individual yondashuv usullarini topish va ulardan foydalanish zarurligini asoslagan. Bu imkoniyati cheklangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyatini rivojlantirish va inklyuziv ta‘lim mazmunini o‘zlashtirish darajasini oshirish uchun muhim deb hisoblanadi.

Inklyuziv ta‘limning yangi sharoitlarida imkoniyati cheklangan bolalar uchun psixologik-pedagogik diagnostika muammosini tadqiq qilish, bu tushunchaning tarkibini aniqlashga qaratilgan. “Maxsus ta‘lim ehtiyojlari” tushunchasi so‘nggi o‘n yilliklarda imkoniyati cheklangan bolalarni ta‘limga jalb qilish nazariy-metodologik asoslarini rivojlantirishning muhim yutuqlaridan biri sifatida tan olinadi. Maxsus ta‘lim ehtiyojlari uchun individual psixosotsial rivojlanish sharoitlarini yaratish va ularning ta‘limga muvaffaqiyatli integratsiyasini amalga oshirish uchun asos deb qaraladi (V.I. Lubovskiy, O.S. Nikolskaya, T.A. Solovyova, I.M. Yakovleva va boshqalar).

E.L.Goncharova va O.I.Kukushkina “maxsus ta’lim ehtiyojlari” atamasining mazmunini L.S.Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi kontekstida ochib beradi. Bu, bolani rivojlantirishda madaniyatda an’anaviy bo’lgan tarbiya usullariga mos kelmaydigan “aylanma yo’llar”ni izlash zarurligini ko’rsatadi.

Imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ta’lim ehtiyojlari zamonaviy mualliflar tomonidan quyidagicha umumlashtiriladi:

1. Ta’lim muassasalari va oilada maxsus tashkil etilgan tartibli fazoviy va vaqt sharoitlariga ehtiyoj.
2. Ta’lim vazifalarini hal qilish jarayonida multidisiplinar qo’llab-quvvatlashga ehtiyoj.
3. Metodik vositalarni tuzatish va rivojlantirish yo’nalishi bo’yicha moslashtirish, maxsus usullar, metodlar va vositalardan foydalanish.
4. Individuallashtirilgan sharoitlarni yaratish, bu ta’lim natijalarining (fanlararo, shaxsiy) ijobiy dinamikasini ta’minlash va ijtimoiy (hayotiy) kompetensiyalarni shakllantirish uchun zarur.
5. Akademik va hayotiy vazifalarni hal qilishda o’quvchi uchun individual yordam ko’rsatishga va olingan ko’nikmalarni yangi vaziyatlarda qo’llashga ehtiyoj.

T.G.Bogdanova maxsus ta’lim ehtiyojlarini tizimli tahlil nuqtai nazaridan “murakkab rivojlanishning har bir varianti uchun xos bo’lgan o’zaro bog’liq va o’zaro ta’sir etuvchi ierarxik tizimlar”deb talqin qiladi. Uning fikriga ko’ra, maxsus ta’lim ehtiyojlarining uchta komponenti ajratilgan:

1. Imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanish xususiyatlari, muayyan rivojlanish buzilish turi va varianti bilan bog’liq.
2. Maxsus ta’lim ehtiyojlarining tarkibiy darajalari, ular barcha kategoriyadagi rivojlanish buzilishlari bilan bog’liq umumiy xususiyatlar asosida aniqlanadi.
3. Bolalarni o’qitishda kerakli maxsus ta’lim sharoitlari.

Ye.L.Indenbaum tomonidan o’tkazilgan tadqiqot pedagoglarning maktabdagi diagnostika faoliyatida bir qator muhim muammolarni aniqlashga imkon berdi:

5. Aniq yo’nalishlarning yetishmasligi. Pedagoglar diagnostika ishida aniq ko’rsatmalarning yo’qligi uning samaradorligini pasaytiradi va natijada o’quvchilarning individual rivojlanishini monitoring qilishni tashkil etishda qiyinchiliklarga olib keladi.
6. Diagnostika metodikalarining validligi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun tez-tez ishlatiladigan diagnostika metodikalarining ishonchliligi bo’yicha bilimlari yetarli emas. Diagnostika ishlari ko’pincha shaklan bajariladi va uning natijalari samarali pedagogik qo’llab-quvvatlashni ta’minlash uchun yetarli asos bo’la olmaydi [62].

E.L.Goncharova va O.I.Kukushkina o'z tadqiqotlarida pedagogik diagnostikaning ahamiyatini va uning metodik ta'minoti yetishmasligini ta'kidlashadi. Ularning fikriga ko'ra, defektolog-o'qituvchilarning bolalarning rivojlanish xususiyatlarini baholashdagi yondashuvlari o'zaro bog'liqlikdan xoli bo'lib, ular bitta maqsad –bolalarning maxsus ta'lim ehtiyojlarini aniqlashga qaratilgan bo'lsa ham, ma'lumotlarning o'zaro integratsiyasi kam.

O'rganilgan tadqiqotlar tahliliga asoslanib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. Korreksion-rivojlantiruvchi ishni individuallashtirish. Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim va tarbiya jarayoniga diagnostika natijalari asosida individual yondashuvni joriy etish uchun ta'lim mazmuni, shakllari va vositalarini individuallashtirish zarur.

2. Psixosotsial rivojlanishni kuzatish. Yaratilgan ta'lim sharoitlarida bolalarning individual rivojlanish dinamikasini baholash muhim. Bu sharoitlarni muntazam qayta ko'rib chiqish va bolalarning ta'lim natijalariga erishishiga to'sqinlik qiluvchi yoki yordam beruvchi omillarni aniqlash talab qilinadi.

I.A.Korobeynikov va N.V.Babkina o'z tadqiqotlarida imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim yo'nalishini belgilashda tipologik rivojlanish variantlariga asoslanishni tavsiya qiladi. Bu bolalarni kompleks (psixologik-tibbiy-pedagogik) tekshirish asosida amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha, inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish va qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydigan maktab mutaxassislarining kelishilgan va konstruktiv hamkorligini tashkil etish uchun zarur sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu muammoni hal qilish imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashdagi birlashuv nuqtalarini aniqlashni talab qiladi, balki ularning o'zaro hamkorligini ilmiy asoslash va metodik jihatdan ta'minlash masalasi ham muhimdir.

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda inklyuziv ta'lim tizimini muvaffaqiyatli joriy etish uchun mutaxassislarning hamkorligini yaxshilash, diagnostika vositalarining sifatini oshirish va kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish muhimdir. Ushbu vazifalarni amalga oshirish inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim va rivojlanish jarayonlarini yanada samarali boshqarishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mo‘minova L., Sh. Amirsaidova va boshqalar. Maxsus psixologiya. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika un-ti. – Toshkent: Noshir, 2016. – 88 b.
2. Назарова Н.М. Интегрированное (инклюзивное) образование: генезис и проблемы внедрения // Научно-методический журнал «Коррекционная педагогика». – 2010. – №4 (40). – С.15-26.
3. Nazarova D.A. Maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi balalar nutqini rivojlantirish. Nomz.dissertatsiya ishi. Toshkent-2009.
4. Никитина, Е.Ю. Теория и практика подготовки будущего учителя к управлению дифференциацией образования : дис. ... д-ра. пед. наук : 13.00.08. / Никитина Елена Юрьевна.— Челябинск, 2001. — 427 с.
5. Nurkeldiyeva D.A. “Aqli zaif bolalarning maktab ta’limiga nutqiy tayyorgarligini aniqlash metodlari”. Pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi. Toshkent 2001. –127.

